

## SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA USTOZ - SHOGIRD MASALALARINING YORITILISHI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sh.S.Shodmonova

TDPU professori, p.f.d.

**Annotatsiy:** Sharq allomalari me'rosida ustoz - shogird vazifalari haqidagi ilg'or qarashlari va ularning mazmuni va mohiyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Ustoz – shogird tizimi, sharq allomalari, vazifalar, an'analar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'naviy yetuklik, tarixiylik, kamolot tushunchasi, ilm-hunar, kamolot darajasi, vatanga sadoqat.

**Annotatsiya:** V nasledii uchenykh Vostoka privedeny peredovye vzglyady na zadachi uchitelya i uchenika, ix soderjanie i sushnost.

**Klyuchevыe slova:** sistema uchitel-uchenik, vostochnye mudresы, zadachi, traditsii, duxovno-nravstvennoe vospitanie, duxovnaya zrelost, istorichnost, ponyatie zrelosti, nauka, uroven zrelosti, vernost Rodine.

**Annotation:** The legacy of Eastern scientists presents advanced views on the tasks of the teacher and student, their content and essence.

**Key words:** teacher-student system, Eastern sages, tasks, traditions, spiritual and moral education, spiritual maturity, historicity, the concept of maturity, science, maturity level, loyalty to the Motherland.

Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirish, bu borada o'zbek xalqi orasida ming yillab e'zozlanib kelinayotgan "Ustoz va shogird" milliy an'anasi ta'lim-atarbiya jarayoninng o'ta muhim tamoyillari sifatida qaralib, undan mazkur jarayonlarda unumli foydalanishga nisbatan ehtiyoj kun sayn ortib bormoqda. Oliy ta'limni rivojlantirishda "Ustoz-shogird" an'alarining o'rni beqiyosdir. Sh.M.Mirziyoyev xalqimizda ustoz-shogird an'asi uzoq tarixga ega. Ushbu an'ana yillar davomida hayot sinovlaridan o'tib kelmoqda. Ushbu an'anani rivojlantirish nafaqat hunar, balki ta'lim sohasida ham yo'lga qo'yilgan. Talaba - yoshlarni tarbiyalash, kamolotga yetkazish, ilm-hunar berish, ustoz-shogird tizimi asosida amalga oshirilmoqda. Ustoz va shogirdning vazifalari, uning o'ziga xos jihatlari dastlab sharqda yaratilgan. Ustozga hurmat, o'gitlariga quloq tutish, uning ta'lim-tarbiyasiga bo'ysunish, undan ibrat olish, uning ishini davom ettirish, o'zaro hurmat va izzat tuyg'usini tarkib toptirish kabilar milliy qadriyat sanaladi. Mazkur yondashuv yangi O'zbekistonni rivojlantirish jarayonida talaba - yoshlarni kamolotga intilish, ma'naviy qadriyatlarni tiklash va Vatanga sadoqat tuyg'ularini o'stirish yo'naltirilgan qator tadbirlar olib borilmoqda. O'zbek xalqning o'tgan ajdodlari tomonidan yaratilib ma'naviy meros bo'lib qolgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq orasidagi ustoz-shogird an'alarini ham kiritish mumkin. Bu nodir an'analar yangi O'zbekistonni rivojlantirish va yuksaltirishda beqiyos o'rin tutadi. Inson o'zi qiziqib tanlagan sohaning ustasi bo'lsa, ongli hayot kechirish uchun zarur moddiy istaklar (rizq-nasiba butunligi,

dasturxon to'kinligi, qulay shart-sharoit) va ma'naviy ehtiyoj (poklanish, hayotdan mazmun va halovat topish) uyg'unligiga erishadi. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish va taraqqiyot sari yo'naltirishda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar xalqimizning ezgu intilishlari negizi – Barkamol avlod orzusini ro'yobga chiqarish bilan belgilanadi. Bu ulug' nomni olish uchun ko'p yillar davomida murakkab sinovlardan o'tishi lozim ekanligi bilan ifodalanadi. Ma'lumki, Turkiy xalqlar qadimiylar madaniyatining jahon taraqqiyotidagi o'rni salmoqlidir. Xuroson, Movaraunnahr, Afrosiyob, Sug'diyona, Marokant, Turon, Turkiston va boshqa joylar butun dunyoga mashhur bo'lib, tabarruk bu zaminda Ahmad Yassaviy, Al-Beruniy, Al-Forobi, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy singari buyuk allomalar hamda Spitamen, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Sohibqiron Amur Temur va temuriyzodalardek jasur o'g'lonlar dunyoga keldilar. Ular o'z xalqining baxt-saodati, madaniyati uchun jisman va ma'nan kurashdilar. Shuning uchun ham jahon ahli ularning ezgu amallarini olqishlab, hanuz tabarruk zotlar deya o'z qalblarida muqaddas tutmoqdalar. Ular, ayniqsa yoshlarning tarbiyasiga, hunar va ilm olishiga katta e'tibor bergenlar va bunga doimiy ravishda chaqirib keldilar.

Ma'lumki, ustoz degan sharafli nomga sazovor bo'lish har kimga ham nasib etmagan. Bu ulug' nomni olish uchun ko'p yillar davomida murakkab sinovlardan o'tishi lozim bo'lgan. Ustoz dastlab shogirdiga auditoriyani ko'rishi, his qilishi, u bilan birga ishlashi kerakligini tushuntiradi va darsning zerikarli bo'lmasligiga harakat qilishi, o'z darsiga shogirdi ko'zi bilan qarashi lozim bo'lgan chora –tadbirlarni berishi ham mumkin. Ustoz shogirdlariga strategik rejalar tuzish va maqsad sari intilish uchun har qanday metodik yordam ko'rsata oladi. Ustoz shogirdiga hayotda va faoliyatda raqobatga kirishishi va o'zini ro'yobga chiqarishi uchun eng muhim narsa boshqa odamlar bilan samarali o'zaro ta'sirga kira olish qobiliyati ekanligini amaliyotda ko'rsata olishi lozimdir. Shogird har qanday raqobat holatida to'g'ri yo'l topa olish ko'nikmalari va natijani to'g'ri aniqlay olish har bir kishidan rang-barang shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlarni talab qilishini bilib boradi. Bunda ustozlar o'z shogirdlariga to'g'ri yo'l ko'rsata olishlari lozim. Shogird natijada o'zining mustaqil harakat qilishida ahamiyatga ega bo'ladi. Demak raqobat usullari shogirdni har tomonlama tayyor kadr bo'lib yetilishiga sabab bo'ladi. Ustoz - shogird munosabatlarida mustahkam pedagogik-psixologik ko'rsatmalar shakllanib borishi ham mumkin. Qadimda milliy an'ana bo'yicha shogirdlikning o'ziga xos odob-axloq qoidalari bo'lgan. Chunonchi, Husayn Voiz Koshifiy bunday deydi: «Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so'rasalar, yettita degin. Avvalo, o'z ishiga yaxshi munosabatda bo'lish, ya'ni o'z kasbini sevish; o'z kasbiga e'tiqod qo'yish va unga ishonish; ustoz oldida haqsevar bo'lish, o'z nojo'ya odatlarini tark etish; ko'rish lozim bo'lmas hamma narsalardan nigohini olib

qochish; eshitish mumkin bo‘lmanan barcha narsalarga qulqoq solmaslik; barcha noloyiq ishlardan qo‘l tortish; ustoziga zid bo‘lgan kishilar bilan muomala qilmaslik kabilar. Agar shogirdlikning asoslari nechta deb so‘rasalar, oltita degin: rostgo‘ylik, vafodorlik, mas’uliyatlilik, nasihatni qulqoqqa olish, ozor bermaslik, sir saqlash. Shogirdlikning eng yaxshi xislati nima deb so‘rasalar, poklik deb javob beriladi. Shogirdlikning noyob gavhari nima deb so‘rasalar, hamkasb do‘stlarini xushnud etish deb javob bergin». Milliy an’ana va qadriyatlarimiz asrlar davomida shakllanib, takomillashib, boyib, rivojlanib kelmoqda. Bunday qadriyatlar orasida ustoz-shogirdlik an’anasi o‘zining beqiyos o‘rniga ega bo‘lib, bir necha ming yillar davomida shakllangan tartib-qoidalarga amal qilib kelinadi. Ustoz-shogirdlik an’anasini, ayniqsa, ajdodlarimiz tomonidan yuksak darajalarga ko‘tarilishi bejiz emas.

Alisher Navoiynin “ Haq yo‘lida kim sanga bir harf o‘qitmish ranj ila Aylamak bo‘lmas ado oning haqin ming ganj ila” degan qarashlarida ham ustoz va shigird an’anasi o‘z aksini topgan. Ustozlarimiz ma’naviyat bog‘ining bog‘bonlaridir. Dunyo ularning mehnatlari evaziga oboddir. Ularning qalblari taratgan ziyo tufayli insonlarning ma’naviy dunyosi yorug‘ va ravshan. Shunday ekan, biz ularni qancha ko‘p ulug‘lasak, e’zozlasak, shuncha ko‘b bilim, tajribaga ega bo‘lamiz. Inson kim bo‘lishidan qat’iy nazar, u qaysi soha vakili bo‘lmasin, bilim olish uchun, kasb-hunar egallashi uchun ustozga muhtoj, va ehtiyoji katta. "Agar shogird shayxulislom, agar qozidur, agar ustoz rozi – Tangri rozidur", – degan qarashlari bilan Alisher Navoiy hazratlari yosh avlod uchun muhim va ahamiyati yuqori bo‘lgan falsafiy yondashuvni ilgari surgan. Shunga ko‘ra, “Ustoz-shogird”lik tushunchasi yuksak milliy qadriyatlarimizdan hisoblanib, bunda asrlar davomida shakllangan tartib-qoidalarga amal qilib kelinadi. Ota o‘z o‘g‘lini ustozga shogirdlikka berarkan, eti sizniki, suyagi bizniki, – deya lutf qilgan. Bu bilan ustozga o‘g‘lining kelajak taqdirini bus-butun ishonib topshirayotganini bildirgan. Ustoz ham shogirdi taqdiriga o‘zini mas’ul bilib, bor iqtidori-yu hunarini unga yuqtirishga intilgan. Oilaviy muhitda yetarli talabchanlik ko‘rmagan bolani qat’iy tartib-qoidaga ko‘niktirgan. Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy” kitobida ustoz qanday bo‘lishi, shogirdlik shartlari nimalardan iborat ekani haqida batafsil ma’lumot beriladi: “Agar komil ustoz kim” deb so‘rasalar, u pok mazhabli, o‘z aybini ko‘radigan, dono va tamizli kishidir, deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar ham bo‘lmasligi kerak. Agar shogirdlik binosi nimaning ustiga quriladi, deb so‘rasalar, irodat ustiga, deb aytgin. Iroda nima deb so‘rasalar, ustoz nimaiki aytsa, uni jon qulog‘i bilan eshitish, chin ko‘ngil bilan qabul qilish va vujud a’zolari orqali amalda ado etishdir. Agar shogird uchun nima yaxshi deb aytsalar, pok e’tiqod, deb ayt, chunki faqat e’tiqod kishini murodga yetkazadi...”. Ma’lumki, Sharqda azal-azaldan kasb-hunar ulug‘langan, ustoz-shogird odobi va ustozning shogirdga bo‘lgan mehr-oqibati juda yuqori qo‘yilgan. «Ustoz-shogird odobi» an’analardan foydalanishni ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o‘rganishdan avval, unga oid ayrim tushuncha va terminlarni aniqlashtirib olish lozim. Xususan, «ustoz», «shogird», «odob», «hunar», «hunarmand» kabilar. Buyuk allomalarimiz doimo kasbga ega bo‘lishni, ilm olishni, savodli bo‘lish kabilarni da’vat etib

kelganlar. Xususan, Hadisu Sharifda ; quyidagilar ta'kidlangan. a) Kasbning eng yaxshisi kishining o‘z qo‘li bilan bajarilgan ishi va halol mehnatidir; b) Ilm o‘rganish har bir musulmon uchun farzdir; c) Bir soatgina ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan yaxshidir; d) Qaysi bir olimning ilmidan so‘ralganda qizg‘anib gapirib bermasa, qiyomatda og‘ziga o‘tdan tizgin solib qo‘yiladi . e) Avvalo olim bo‘l! Ilmu ulamolarni sevuvchi bo‘l!; f) Sadaqaning afzali musulmon kishining ilm o‘rganib, so‘ng boshqa musulmon birodarlariga ham o‘rgatishidir. Payg‘ambar Dovud alayhissalom-temirchilik, Arastudan keyingi ikkinchi muallim deya shuhrat topgan qomusiy olim Forobiy - bog‘bonchilik, shoir Sakkokiy - pichoqchilik, shoir Zavqiy esa mahsido‘zlik bilan tirikchilik o‘tkazishgan. Hoja Bahovuddin Naqshband ham hunarmandchilik bilan shug‘ullanib, u Turkistonda birinchilardan bo‘lib, odamlarni hunar o‘rganishga va hunar bilan shug‘ullanishga chorlaganlar. U qalin ipakli mato-kimxob to‘qish bilan tirikchilik qilar, shogirdlariga ham hunar o‘rgatar edi. Alisher Navoiy «Nasoim ul muhabbat» da tasavvuf pirlari va shayxlari haqida so‘z yuritar ekan, Hoja Abdulla Ansoriy - etikdo‘z, Shayx Abubakr Habboz - novvoy, Shayx Omuliy - qassob, Shayx Ashariy - g‘isht teruvchi, Shayx Bannon - hammol, Shayx Abuxasan - duradgor bo‘lganligini aytadi va qator misollar keltiradi. Ma’lumki, milliy urf odatlarimiz va qadriyatlarimizda ustoz-shogird odobiga alohida bir insoniy amal, san‘at sifatida qaralgan, bu odoblarda nazarda tutilishi lozim bo‘lgan fazilatlar bir qarashda mayda amallarga o‘xshasa -da, aslida yaxshi hunar sohibi bo‘lishlikning insoniy shartlaridandir. Bu o‘gitlar hozirgi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan juda ibratli va dolzarbdir.[3].

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy. Hadis II qism. - T.: Qomuslar bosh tahririyyati, 1997. - 607 b.
2. Avesto // Tarixiy-adabiy yodgorlik: Asqad Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq, 2001. – 400 b.
3. Mallaev Q.N. Navoiy ijodiètining xalqchil negizi. -T.: O‘qituvchi, 1980. - 132 b.